

Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona Mintaqaviy filialining

Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi

zulfizarshakirjanovna@gmail.com

MAQOM ASOSLARI “SHASHMAQOM”

Annotatsiya: Mazkur maqolada, O'zbek mumtoz musiqasining mustahkam, buzilmas poydevori olti maqom, ya'ni shashmaqom yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Iroq, shashmaqom, maqom, Segoh, Dugoh, Navo, musiqa, cholg'u.

O'zbek mumtoz musiqasining bo'lagi maqom hisoblanadi. Murakkab bo'lsa ham ammo, nafis jozibani mujassam etadi. Shuningdek, Har bir maqom 2 ta bo'limga bo'linadi ya'ni cholg'u va ashula bo'limi.

“Shashmaqom”ning cholg'u bo'limi.

"Shashmaqom"ning Mushkulot bo'limini 6 tadan 10 taga-cha rang-barang cholg'u asarlar turkumi tashkil qiladi. Ulardan beshtasi asosiy, muqarrar qismlar bo'lib, qolganlari ularning variantlari yoki har bir maqomga xos mansub cholg'u qismlari ham uchraydi (maqomlarda har bir qism yoki sho'ba uchta ma'noda ishlatiladi:

1-mustaqil asar; 2-turkum qismi; 3-usul nomi). Mush-kulotning asosiy qismlari - tasnif, tarje', gardun, muxammas va saqi. Ularning har bir kuy yo'llari mustaqil cholg'u qismlar hisob-lanadi va o'zlariga mansub bo'lgan maqomlar nomi bilan go' shib aytiladi. Masalan, Buzruk tasnifi, Rost garduni, Navo tarje', Iroq muxammasi va hokazo.

"Shashmaqom" ning cholg'u yo'llari ohang va kuy tuzilishi jihatidan juda murakkab va puxta yaratilganligi bilan ajralib turadi. Mushkulot bo'limi qismlarining kuy mavzulari o'z xarakteri, doira usuli o'ziga xoslik bilan ajralib tursa, ularning "xona" va

"bozgo'y" lad asoslari va asar shakli bir xilligi bilan harakterla-nadi. Asarlar "xona" va "bozgo'y" asosida shakllanadi. "Xona" va "bozgo'y" kuy tuzilmalari bo'lib, cholg'u asarlari shakli ularning almashuvi asosida gavdalanadi. "Xona" (uy, xona) - asosiy kuy jumlasini bo'lib, unda asarning asosiy mavzusi va ohangi mujassamlangan va rivolanish jarayonida u shaklan va mazmu- nan boyitib boriladi. Kuy o'z harakati doirasida yuqoriga intilib, avjga tomon rivojlana boradi va asta-sekin o'zining boshlang'ich

pardasiga qaytadi. Shu tufayli, xonaning har bir kuy tuzilmasi son belgisi bilan belgilanadi - Xona 1, Xona 2 va h.k. (X,, X, X, va h.k.). "Bozgo'y" (qaytaruv) - kuy tuzilma bo'lib, xona mav- zusi ohang asosida ifodalanadi va ijro jarayonida o'zgarmaydi- gan shaklda muntazam takrorlanib (naqarotga o'xshash) turadi.

Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. Toshkent-2018. 52-bet

"SHASHMAQOM"NING ASHULA BO'LIMI.

Cholg'u bo'limidan keyin «Nast» deb ataladigan ashula bo'limi rang-barang, katta va kichik, sodda va murakkab ashula asarlar tur-kumidan tashkil topgan. Har bir maqom mazmuni, hajmi, shakli ji- hatlaridan turlicha bo'lgan ashula namunalaridan iborat. Ular sho ba (bo lim, asar), tarona, shoxobcha kabi iboralar bilan yuritiladi. Ashula bo limi ikki turkum - ikki guruh sho balardan iborat. Birinchi guruhni tashkil etgan Sarahbor, Talqin, Nasr va Ufarlar "Shashmagom" ashula bo'limining asosiy ashula

yo'llaridan hisoblanadi. Ikkinchi guruh sho'basiga - Savt, Mo'g'ilchalar va turli magomlarning o'ziga xos bo'lgan ba'zi ashula yo'llari kiradi. Har bir guruh tuzilishi, shakli

va ijro uslublari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ularning birlamchi vositasi soz va kuy mutanosibligidir. Shu jihatdan Nasr bo'limida Sharq mumtoz shoirlarining she'rlari so'z matni sifatida qo'llanadi.

Ular o'zbek va tojik tillari va shevasida talgin etiladi. Maqom ashula yo'llarida aytilgan she'rlar - Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Zebuniso, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Muqimiy, Furqat, Yusuf Saryomiy, Xurshid, Habibiy kabi shoirlarning lirik-ishqiy, falsafiy va didaktik mazmundagi g'azallari va xalq she'riyatidan tashkil topgan. Ma'lum maqom yo'lga turlicha mazmundagi she'rlar tushirib aytilgan.

Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. Toshkent-2018. 54-bet

Umuman olganda, Shashmaqom lad asosi va badiiy-estetik xarakterini qamrab oladi. Bugungi yoshlar uchun Shashmaqom alohida bilim manbasi desak adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov B. Milliy musiqa san'ati – millat ko'zgusi.//jurn. Teatr No1. 2023. – Toshkent. (10-12 b)
2. G'oyib B., Ermuhammad K. Yana kelar sen kutgan bahor.//jur. Guliston No10. 1989 y. O'zKMK nashriyoti. (32 b).
3. Elmurodova G. Musiqa san'ati va uning bizning hayotimizdagi o'rni //jur. Ta'lim fidoyilari No1. 2022. – Toshkent (4-8 b).
4. Turanazarov N. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari.: - Termiz. TerDU. 2006. 92 bet.
5. Ashurov M. Yoshlar tarbiyasida musiqa san'atining ahamiyati.